


## VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 102,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 786,2 mln. AQSh dollariga yoki 59,7 % ga o‘sdi.

### Tashqi savdo aylanmasi va balansi (yanvar-iyun, mln. AQSh dollar)



*Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlataladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

## **Andijon viloyati bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori**

**ulushga ega bo‘lgan davlatlar**

*(2022- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)*

TSAda eksport hajmi 567,2 mln. AQSh dollariga (40,4 % ga o‘sdi) va import hajmi 1 535,4 mln. AQSh dollariga (68,3 % ga o‘sdi) yetdi. Hisobot davrida – 968,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**Koreya  
Respublikasi**

TSA – 889,9  
Eksport – 0,4  
Import – 889,5



**XXR**

TSA – 357,4  
Eksport – 48,7  
Import – 308,7



**Qirg‘iz  
Respublikasi**

TSA – 219,2  
Eksport – 203,7  
Import – 15,5



**Qozog‘iston**

TSA – 199,6  
Eksport – 195,9  
Import – 3,7



**Rossiya  
Federatsiyasi**

TSA – 183,4  
Eksport – 61,1  
Import – 122,3



**Turkiya**

TSA – 57,5  
Eksport – 24,9  
Import – 32,6



**AQSH**

TSA – 39,5  
Eksport – 0,1  
Import – 39,4



**Hindiston**

TSA – 18,7  
Eksport – 0,4  
Import – 18,3



**Shvetsariya**


TSA – 17,5  
Eksport --  
Import – 17,5



**Braziliya**

TSA – 12,8  
Eksport – 0,1  
Import – 12,7

**20 ta yirik hamkor-davlatlar ichida 4 ta faol tashqi savdo  
balansi kuzatilgan davlatlar**  
(2022- yil yanvar-iyun)



Andijon viloyati jahoning 74 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasi (42,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (17,0 %), Qirg'iz Respublikasi (10,4 %), Qozog'iston (9,5 %) va Rossiya Federatsiyasida (8,7 %) qayd etilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qozog'iston (192,2 mln. AQSH dollar), Qirg'iz Respublikasi (188,2 mln. AQSH dollar), Afg'oniston (9,5 mln. AQSH dollar) hamda Ozarbayjon (6,4 mln. AQSH dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.


**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan  
tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**  
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

| Davlatlar  | 2020-y.      | 2021-y.      | 2022-y.      |
|--|--------------|--------------|--------------|
|  <b>Koreya Respublikasi</b>     | <b>752,2</b> | <b>534,7</b> | <b>889,9</b> |
| <i>Eksport</i>   | 0,2          | 0,2          | 0,4          |
| <i>Import</i>  | 752,0        | 534,5        | 889,5        |
|  <b>Xitoy Xalq Respublikasi</b> | <b>144,2</b> | <b>193,0</b> | <b>357,4</b> |
| <i>Eksport</i>   | 30,1         | 46,0         | 48,7         |
| <i>Import</i>  | 114,1        | 147,0        | 308,7        |
|  <b>Qirg'iz Respublikasi</b>    | <b>93,9</b>  | <b>141,6</b> | <b>219,2</b> |
| <i>Eksport</i>   | 86,4         | 124,8        | 203,7        |
| <i>Import</i>  | 7,5          | 16,8         | 15,5         |
|  <b>Qozog'iston</b>             | <b>65,9</b>  | <b>171,2</b> | <b>199,6</b> |
| <i>Eksport</i>   | 59,0         | 167,0        | 195,9        |
| <i>Import</i>  | 6,9          | 4,2          | 3,7          |
|  <b>Rossiya Federatsiyasi</b> | <b>145,7</b> | <b>100,9</b> | <b>183,4</b> |
| <i>Eksport</i>   | 35,0         | 33,2         | 61,1         |
| <i>Import</i>  | 110,7        | 67,7         | 122,3        |
|  <b>Turkiya</b>               | <b>34,9</b>  | <b>43,2</b>  | <b>57,5</b>  |
| <i>Eksport</i>   | 5,0          | 12,5         | 24,9         |
| <i>Import</i>  | 29,9         | 30,7         | 32,6         |
|  <b>AQSh</b>                  | <b>7,9</b>   | <b>30,1</b>  | <b>39,5</b>  |
| <i>Eksport</i>   | 0,1          | 0,2          | 0,1          |
| <i>Import</i>  | 7,8          | 29,9         | 39,4         |
|  <b>Hindiston</b>             | <b>6,0</b>   | <b>8,8</b>   | <b>18,7</b>  |
| <i>Eksport</i>   | 0,1          | 0,2          | 0,4          |
| <i>Import</i>  | 5,9          | 8,6          | 18,3         |
|  <b>Shvetsariya</b>           | <b>0,5</b>   | <b>1,1</b>   | <b>17,5</b>  |
| <i>Eksport</i>   | -            | -            | -            |
| <i>Import</i>  | 0,5          | 1,1          | 17,5         |
|  <b>Braziliya</b>             | <b>10,8</b>  | <b>7,0</b>   | <b>12,8</b>  |
| <i>Eksport</i>   | -            | -            | 0,1          |
| <i>Import</i>  | 10,8         | 7,0          | 12,7         |

|   | Davlatlar                      | 2020-y.     | 2021-y.     | 2022-y.     |
|---|--------------------------------|-------------|-------------|-------------|
|    | <b>Chexiya</b>                 | <b>11,3</b> | <b>5,3</b>  | <b>10,6</b> |
|   | <i>Eksport</i>                 | 0,1         | 0,1         | -           |
|   | <i>Import</i>                  | 11,2        | 5,2         | 10,6        |
|    | <b>Germaniya</b>               | <b>7,2</b>  | <b>6,4</b>  | <b>10,2</b> |
|   | <i>Eksport</i>                 | 0,1         | 0,4         | 0,6         |
|   | <i>Import</i>                  | 7,1         | 6,0         | 9,6         |
|    | <b>Italiya</b>                 | <b>6,4</b>  | <b>7,1</b>  | <b>9,7</b>  |
|   | <i>Eksport</i>                 | 0,5         | 1,9         | 2,5         |
|   | <i>Import</i>                  | 5,9         | 5,2         | 7,2         |
|    | <b>Afg'oniston</b>             | <b>1,1</b>  | <b>1,8</b>  | <b>9,5</b>  |
|   | <i>Eksport</i>                 | 0,8         | 1,7         | 9,5         |
|   | <i>Import</i>                  | 0,3         | 0,1         | 0,0         |
|   | <b>Ozarbayjon</b>              | <b>7,0</b>  | <b>2,6</b>  | <b>6,8</b>  |
|   | <i>Eksport</i>                 | 6,5         | 1,8         | 6,6         |
|   | <i>Import</i>                  | 0,5         | 0,8         | 0,2         |
|  | <b>Slovakiya</b>               | <b>3,6</b>  | <b>3,5</b>  | <b>5,7</b>  |
|   | <i>Eksport</i>                 | -           | -           | 0,0         |
|   | <i>Import</i>                  | 3,6         | 3,5         | 5,7         |
|  | <b>Polsha</b>                  | <b>4,3</b>  | <b>6,2</b>  | <b>5,6</b>  |
|   | <i>Eksport</i>                 | 0,3         | 0,8         | 0,6         |
|   | <i>Import</i>                  | 4,0         | 5,4         | 5,0         |
|  | <b>Tailand</b>                 | <b>28,4</b> | <b>10,2</b> | <b>4,9</b>  |
|   | <i>Eksport</i>                 | -           | -           | -           |
|   | <i>Import</i>                  | 28,4        | 10,2        | 4,9         |
|  | <b>Eron Islom Respublikasi</b> | <b>1,5</b>  | <b>4,5</b>  | <b>4,7</b>  |
|   | <i>Eksport</i>                 | 0,3         | 0,2         | 0,4         |
|   | <i>Import</i>                  | 1,2         | 4,3         | 4,3         |
|  | <b>Belarus Respublikasi</b>    | <b>1,4</b>  | <b>2,1</b>  | <b>3,7</b>  |
|   | <i>Eksport</i>                 | 1,3         | 0,8         | 1,2         |
|   | <i>Import</i>                  | 0,1         | 1,3         | 2,5         |

## Andijon viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi

*(yanvar-iyun 2022- yil)\**




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka 66,4 % ulush bilan 1 396,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Paxtaobod 0,5 % ulush bilan 10,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Andijon viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich so‘nggi yillarda biroz o‘zgardi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 29,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yilga nisbatan 3,2 % ga kamaygan.

**Andijon viloyatiining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**  
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan 67,3 % ga o‘sdi va jami TSAdagi ulushi 70,5 % ni tashkil etdi.


## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-iyun)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyori soni 360 tani tashkil etib, ular tomonidan 567,2 mln. AQSh dollarri (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021 - yilning mos davriga nisbatan 40,4 % ga o'sdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST bo'yicha eksport tarkibi

(2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,1 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob – uskunalar (35,1 %), sanoat tovarlari (29,3 %), turli xil tayyor mahsulotlar (28,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,3 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (1,6 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (0,6 %) va nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (0,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Andijon viloyati XSST bo‘yicha eksport tarkibi

(yanvar-iyun,)


| XSST tarkibi  | Ming AQSh dollarari |                  |                  | Umumiy hajmga nisbatan, % da |                |                  |
|---|---------------------|------------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
|   | Jami                | MDH davlatlari   | Boshqa davlatlar | Jami                         | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| <b>Jami eksport</b>   | <b>567 223,9</b>    | <b>473 814,5</b> | <b>93 409,4</b>  | <b>100,0</b>                 | <b>100,0</b>   | <b>100,0</b>     |
| shu jumladan:   |                     |                  |                  |                              |                |                  |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                      | 18 894,2            | 17 607,0         | 1 287,2          | 3,3                          | 3,7            | 1,4              |
| Ichimlik va tamaki  | 96,0                | 96,0             | -                | -                            | -              | -                |
| Nooziq-ovqat homashyo, yoqlig‘idan tashqari                                     | 1 846,4             | 353,9            | 1 492,5          | 0,3                          | 0,1            | 1,6              |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar                | 9 168,1             | 42,7             | 9 125,4          | 1,6                          | -              | 9,8              |
| Hayvon va o‘simpliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar                    | 0,6                 | 0,6              | -                | -                            | -              | -                |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar | 3 368,0             | 3 365,0          | 3,0              | 0,6                          | 0,7            | -                |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari             | 166 261,5           | 91 715,0         | 74 546,5         | 29,3                         | 19,3           | 79,8             |
| Mashinalar va transport asbob uskunalar   | 198 746,9           | 197 482,8        | 1 264,1          | 35,1                         | 41,7           | 1,3              |
| Turli xil tayyor buyumlar   | 163 826,3           | 159 527,6        | 4 298,7          | 28,9                         | 33,7           | 4,6              |
| Xizmatlar   | 5 015,9             | 3 623,9          | 1 392,0          | 0,9                          | 0,8            | 1,5              |

**XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar eksporti tarkibi**  
**(2022- yil yanvar-iyun)**

| XSST bo‘limi nomi   | Ming.<br>AQSh<br>dolları | 2021-<br>yilning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>% da |
|---|--------------------------|--|
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>   |                          |  |
| Sabzavotlar va mevalar  | 17 706,7                 | 117,2  |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar   | 569,9                    | 77,4   |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari  | 472,5                    | 2,4 b.   |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar   | 76,1                     | 47,6   |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>  |                          |  |
| Ichimliklar   | 96,0                     | 81,2   |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>  |                          |  |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari   | 1 485,4                  | 45,4   |
| Moy olinadiga urug‘lar va mevalar   | 227,2                    | 20,1   |
| 56- bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 83,9                     | 3,5 b.   |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari   | 49,8                     | 8,1  |
| <b>Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar</b>   |                          |  |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xhash materiallar   | 9 104,7                  | 437,4 b.   |
| Ko‘mir, koks va briketlar   | 63,3                     | -  |
| <b>Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>  |                          |  |
| O‘simlik moylari va yog‘lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan   | 0,6                      | 3,3 b.   |
| Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan   | 0,02                     | 38,9   |
| <b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar</b>  |                          |  |
| Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar   | 1 791,7                  | 11,2 b.  |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar   | 1 014,5                  | 14,7 b.  |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar   | 236,2                    | 107,4  |
| Noorganik kimyo moddalari   | 158,9                    | 177,6  |
| <b>Sanoat tovarlari</b>   |                          |  |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xhash mahsulotlar  | 139 242,6                | 147,5  |
| Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qogo‘z yoki kartondan tayyorlangan buyumlar   | 12 358,9                 | 224,4 b.   |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan  | 8 158,2                  | 2,6 b.   |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan  | 3 131,1                  | 2,6 b.   |

| XSST bo'limi nomi  | Ming.<br>AQSh<br>dollarri | 2021-<br>yilning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>% da |
|--|---------------------------|--|
| <b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>  |                           |  |
| Avtomobillar   | 122 111,3                 | 73,8   |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar   | 68 344,5                  | 524,8 b.   |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoq qismlari  | 5 872,1                   | 78,5   |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari   | 2 043,7                   | 2,2 b.   |
| <b>Turli xil tayyor buyumlar</b>   |                           |  |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari  | 148 540,4                 | 151,3  |
| Poyabzal   | 8 585,0                   | 2,5 b.   |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel | 2 447,7                   | 7,1 b.   |
| Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan   | 2 002,5                   | 117,5  |

**MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi**  
(yanvar-iyun mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlariiga 473,8 mln. AQSH dollarri qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 83,5 foizini tashkil etdi.

## Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(2022- yil yanvar-iyun,% da)



2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qirg'iz Respublikasi eksport umumiy hajmida (35,9 %), Qozog'iston (34,5 %), Rossiya Federatsiyasi (10,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (8,6 %), Turkiya (4,4 %), Afg'oniston (1,7 %) va Ozarbayjon (1,2 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 97,1 % ni tashkil etmoqda.

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti


Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoxda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 18,4 mln. AQSh dollarari qiymatli 56,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,7 mln. AQSh dollarida o'sish kuzatilib, 10,4 % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 10,8 mln. AQSh dollariga teng 40,7 ming tonna sabzavot, shuningdek, 4,3 mln. AQSh dollarari qiymatidagi 5,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(2022- yil yanvar-iyun)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg‘iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Turkiya hamda Belarus Respublikasi davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavot mahsulotlari eksportining jami eksport hajmidagi ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.

## Meva va sabzavot mahsulotlarining eksport geografiyasi

(2022- yil yanvar-iyun)

| Davlatlar  | tonna    | ming AQSh dollarari | ulushi,<br>% da * |
|--|----------|---------------------|-------------------|
|  <b>Qirg‘iz Respublikasi</b>  | 46 926,0 | 10 272,1            | 58,0              |
|  <b>Rossiya Federatsiyasi</b> | 7 137,9  | 6 208,8             | 35,1              |
|  <b>Qozog‘iston</b>           | 884,0    | 453,2               | 2,6               |
|  <b>Turkiya</b>               | 193,2    | 372,4               | 2,1               |
|  <b>Belarus Respublikasi</b>  | 240,0    | 124,6               | 0,7               |
|  <b>Latviya</b>               | 151,9    | 97,3                | 0,5               |
|  <b>Ozarbayjon</b>            | 42,7     | 54,5                | 0,3               |
|  <b>Avstriya</b>              | 32,1     | 43,2                | 0,2               |
|  <b>Polsha</b>                | 38,8     | 43,2                | 0,2               |
|  <b>Tojikiston</b>            | 8,9      | 21,2                | 0,1               |
|  <b>Boshqalar</b>             | 22,1     | 16,2                | 0,2               |

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 58,0 %), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,7 baravar ko'pdir.

### To'qimachilik mahsulotlari eksporti



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xom- ashyosi o'rniغا tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 287,5 mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 50,7 foizini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 48,9 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (51,5 %), paxtadan yigirilgan ip (31,1 %) asosiy ulushni egallagan yil boshidan 247 turdag'i to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 25 ta davlatiga eksport qilindi.

### To'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

|  | 2021- y. | 2022- y. |
|--|----------|----------|
| Jami:                                    | 193,1    | 287,5    |
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 98,1     | 148,2    |
| Paxtadan yigirilgan ip                   | 59,2     | 89,3     |
| Naqshli mato                             | 21,9     | 24,9     |
| Boshqa to'qimachilik mahsulotlari        | 5,0      | 6,2      |
| Ipak va ipak mahsulotlari                | 1,0      | 2,9      |
| Paxtadan gazlamalar                      | 3,2      | 4,4      |
| Paxta mahsulotlari                       | 3,8      | 2,8      |
| Gilamlar                                 | 0,2      | 4,1      |
| Boshqalar                                | 0,7      | 4,7      |



## **Andijon viloyatining importi**

(2022- yil yanvar-iyun)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 1 535,4 mln. AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 168,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob - uskunalar (62,1 %), sanoat tovarlari (21,5 %), turli xil tayyor buyumlar (5,5 %), xizmatlar (5,0 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (4,3 %) va boshqalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

### **XSST bo‘yicha import tarkibi**

(2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-iyunida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 600,4 mln. AQSh dollariga ortdi va 1 459,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 76,3 mln. AQSh dollariga yetdi.

## Andijon viloyati XSST bo‘yicha import tarkibi

*(yanvar-iyun, yillar kesimida)*

| XSST tarkibi  | Mln. AQSh dollarri |                | O‘sish sur’ati, % da |              | Umumiy hajmga nisbatan. % da |              |
|---|--------------------|----------------|----------------------|--------------|------------------------------|--------------|
|   | 2021-y.            | 2022- y.       | 2021- y.             | 2022 -y.     | 2021- y.                     | 2022- y.     |
| <b>Jami import</b>  | <b>912,5</b>       | <b>1 535,4</b> | <b>80,8</b>          | <b>168,3</b> | <b>100,0</b>                 | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>  |                    |                |                      |              |                              |              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                      | 9,9                | 9,5            | 144,1                | 95,9         | 1,1                          | 0,6          |
| Ichimlik va tamaki  | -                  | 0,1            | 24,7                 | 47,6 b.      | -                            | -            |
| Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg‘idan tashqari                                     | 8,8                | 9,9            | 99,7                 | 112,8        | 1,0                          | 0,6          |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar                | 5,4                | 5,7            | 123,1                | 106,2        | 0,6                          | 0,4          |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar                     | 0,5                | -              | 32,3                 | 1,5          | 0,1                          | -            |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar | 49,7               | 65,6           | 98,4                 | 132,1        | 5,4                          | 4,3          |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan-gan sanoat tovarlari            | 173,9              | 329,7          | 77,7                 | 189,6        | 19,0                         | 21,5         |
| Mashinalar va transport asbob uskunalar   | 556,7              | 953,2          | 79,1                 | 171,2        | 61,0                         | 62,1         |
| Turli xil tayyor buyumlar   | 53,8               | 85,4           | 83,0                 | 158,7        | 5,9                          | 5,5          |
| Xizmatlar   | 53,8               | 76,3           | 83,4                 | 141,8        | 5,9                          | 5,0          |

**XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi**  
**(2022- yil yanvar-iyun)**

| XSST bo‘limi nomi   | Ming.<br>AQSh<br>dollarri | 2021- yilning<br>mos dabriga<br>nisbatan,<br>% da |
|---|---------------------------|---|
|   |                           |   |
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>   |                           |   |
| Tirik hayvonlar   | 3 813,5                   | 89,7  |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar   | 1 734,5                   | 115,8   |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar  | 1 203,1                   | 19,5 b.   |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                             | 1 055,6                   | 108,9   |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>  |                           |   |
| Ichimliklar   | 111,4                     | 47,6 b.   |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>  |                           |   |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari   | 3 050,1                   | 2,0 b.  |
| Probka va yog‘och-taxtalar  | 2 945,3                   | 120,7   |
| Tabiiy kauchuk (sun’iy va regeneratsiya qilingan rezina)                                      | 1 485,3                   | 78,0  |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan | 1 162,3                   | 107,9   |
| <b>Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar</b>                      |                           |   |
| Ko‘mir, koks va briketlar   | 3 633,2                   | 93,7  |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar                                      | 2 084,4                   | 137,1   |
| Tabiiy yoki sun’iy gaz  | 14,4                      | -   |
| <b>Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>                            |                           |   |
| O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)                            | 6,8                       | 1,5   |
| Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan                                 | 0,3                       | 0,6   |
| <b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar</b>       |                           |   |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar   | 25 310,9                  | 110,6   |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar                               | 11 168,5                  | 158,2   |
| Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar   | 10 851,1                  | 125,2   |
| Organik kimyo moddalari   | 7 163,6                   | 2,1 b.  |


## XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi

*(2022- yil yanvar-iyun)*

| XSST bo‘limi nomi  | Ming.<br>AQSh<br>dollarri | 2021-<br>yilning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>% da |
|--|---------------------------|--|
| <b>Sanoat tovarlari</b>  |                           |  |
| Cho‘yan va po‘lat  | 125 121,7                 | 2,3 b.   |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar  | 92 689,7                  | 2,6 b.   |
| Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan  | 62 946,1                  | 143,2  |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xhash mahsulotlar   | 29 701,7                  | 161,8  |
| <b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>  |                           |  |
| Avtomobillar   | 720 033,3                 | 183,8  |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar   | 95 949,2                  | 169,3  |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari   | 66 043,2                  | 128,8  |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari   | 37 021,5                  | 153,7  |
| <b>Turli xil tayyor buyumlar</b>   |                           |  |
| Har xil tayyor buyumlar  | 34 200,4                  | 195,2  |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari  | 25 788,8                  | 169,0  |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xhash tikilgan mebel | 22 240,1                  | 128,4  |
| Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalarini uchun armatura va mahkamlash moslamalari       | 1 140,6                   | 51,0   |

2022-yil yanvar-iyun natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 2021-yilning shu davriga nisbatan 0,8 % ga pasaygani kuzatildi. 2019- yilning shu davriga nisbatan 1,8 % ga pasayish qayd etildi va ularning jami importdagи ulushi 2022- yil yanvar-iyun natijalariga ko‘ra 9,5 % ni tashkil etdi.

**MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi**  
 (yanvar-iyun, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 66 ta davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Turkiya, Hindiston va Shvetsariya) jami importning 93,0 % ulushini tashkil qildi, bu 1 428,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
 (2022- yil yanvar-iyun, % da)



## Mashinalar va transport asbob-uskunalarini importi

2022- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob - uskunalarini hajmi 953,2 million AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 71,2 foizga o‘sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi 62,1 % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalarini asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma’lumotdan ko‘rish mumkin.

### Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar (2022- yil yanvar-iyun)




2022- yil yanvar-iyun oylarida mashina va transport asbob-uskunalarini importi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 396,5 mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni O‘zbekiston Respublikasiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi - 644,4 mln. AQSH dollari (67,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi - 191,4 mln. AQSH dollari (20,1 %) va Turkiya - 18,7 mln. AQSH dollari (2,0 %) kabi davlatlarga to‘g‘ri keldi.

## Sanoat tovarlari importi

2022- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi 329,7 million AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 89,6 % ga o‘sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi 21,5 % ga yetdi.

### Sanoat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar (2022- yil yanvar-iyun)



Sanoat tovarlari importi asosan cho‘yan va po‘lat (125,1 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (92,7 mln. AQSH dollari), rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (62,9 mln. AQSH dollari), to‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar (29,7 mln. AQSH dollari), ruda bo‘limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (11,0 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.